2026-yil
9-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

UDK-37.013.46

Turaboyev Azamat Maxamadullayevich,
University of Business and Science
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

TRANSFORMATSIYA YONDASHUVI ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada transformatsiya yondashuvi negizida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy hamda metodologik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda transformativ ta'lim konsepsiyasining asosiy tamoyillari, uning shaxs kamoloti, kasbiy o'zini identifikatsiya qilish va milliy qadriyatlarni ongli ravishda o'zlashtirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, milliy o'zlikni anglashning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik omillar aniqlangan va ularni transformatsiya yondashuvi asosida takomillashtirishning ilmiy asoslari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: transformatsiya yondashuvi, milliy o'zlikni anglash, milliy identiklik, pedagogik mexanizmlar, refleksiv tafakkur, tanqidiy fikrlash, kasbiy identiklik, milliy qadriyatlar, kasbiy kompetentlik, innovatsion pedagogik texnologiyalar, oliy ta'lim, shaxs kamoloti, ma'naviy-axloqiy rivojlanish.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ТРАНСФОРМАЦИОННОГО ПОДХОДА

Аннотация. В статье изложены научно-теоретические и методологические основы механизмов формирования национального самосознания у будущих учителей начальных классов, опирающиеся на трансформационный подход. В исследовании раскрываются ключевые принципы концепции трансформационного образования и подчеркивается ее значимость для личностного развития, профессионального самоопределения и осознанного усвоения национальных ценностей. На основе сравнительного анализа взглядов зарубежных и отечественных ученых выявлены педагогические факторы, влияющие на формирование национального самосознания, и представлено научное обоснование их совершенствования с применением трансформационного подхода.

Ключевые слова: трансформационный подход, национальное самосознание, национальная идентичность, педагогические механизмы,

рефлексивное мышление, критическое мышление, профессиональная идентичность, национальные ценности, профессиональная компетентность, инновационные педагогические технологии, высшее образование, личностное развитие, духовно-нравственное развитие.

IMPROVING MECHANISMS FOR FOSTERING NATIONAL SELF-AWARENESS IN PROSPECTIVE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON A TRANSFORMATIONAL APPROACH

Abstract. This article outlines the scientific-theoretical and methodological foundations of mechanisms for developing national self-awareness in prospective primary school teachers, grounded in a transformational approach. The study elucidates the core principles of the transformative education concept and highlights its significance for personal development, professional self-identification, and the conscious internalization of national values. Through a comparative analysis of the views of both foreign and domestic scholars, the study identifies the pedagogical factors influencing the formation of national self-awareness and presents the scientific basis for enhancing these factors using a transformational approach.

Keywords: transformational approach, national self-awareness, national identity, pedagogical mechanisms, reflective thinking, critical thinking, professional identity, national values, professional competence, innovative pedagogical technologies, higher education, personal development, spiritual-moral development.

Kirish. Bugungi kunda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli texnologiyalarning ta'lim va ijtimoiy hayotning barcha sohalariga chuqur kirib borishi, sun'iy intellekt imkoniyatlarining kengayishi hamda turli madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalarning kuchayishi shaxsning milliy o‘zligini anglash masalasiga bo‘lgan ilmiy qiziqishni yanada oshirmoqda. Bunday sharoitda yosh avlodda milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy xotira, madaniy merosga daxldorlik, Vatanga sadoqat va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Mazkur jarayonda pedagog shaxsining o‘rni alohida bo‘lib, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va milliy o‘zligini anglashi uning o‘quvchilar bilan olib boradigan tarbiyaviy faoliyatiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich ta'lim davrida bolaning ona tili, milliy tarix, urf-odat, an'ana va qadriyatlarga munosabati shakllana boshlaydi. Shu bois bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning kasbiy bilim va ko‘nikmalari bilan bir qatorda, milliy o‘zlikni anglash darajasini rivojlantirish, milliy qadriyatlarga ongli munosabatini shakllantirish hamda ushbu qadriyatlarni zamonaviy ta'lim mazmuni bilan uyg‘unlashtira olish qobiliyatini rivojlantirish zarur. Bu vazifa an'anaviy tarbiyaviy ta'sir vositalari bilangina cheklanib qolmasdan, shaxsning

mavjud qarashlari, tajribasi va qadriyatlarini qayta ko‘rib chiqishiga imkon beruvchi zamonaviy pedagogik yondashuvlarni talab qiladi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari ham mazkur masalaning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida oliy ta’lim sifatini oshirish, kompetensiyaviy yondashuvni keng joriy etish va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonda esa inson kapitalini rivojlantirish, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, inson kapitalini rivojlantirish, yoshlarning intellektual va ma’naviy salohiyatini yuksaltirish hamda zamonaviy kompetensiyalarga ega kadrlar tayyorlash muhim yo‘nalishlar sifatida belgilangan. 2021-yil 26-martdagi PQ–5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror esa yoshlarning milliy o‘zligini anglashini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni mustahkamlash va ma’naviy tarbiya samaradorligini oshirishga qaratilgan vazifalarni belgilab bergan.

Mazkur normativ-huquqiy asoslar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy-madaniy merosga hurmat, Vatanga sadoqat, fuqarolik mas’uliyati va ma’naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini izlash bugungi pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biridir.

Mazkur muammoni hal etishda transformatsiya yondashuvi alohida imkoniyatlarga ega. Transformatsiya shaxsning mavjud bilimlari, tajribasi, qarashlari va qadriyatlarini tanqidiy-refleksiv jihatdan qayta ko‘rib chiqishi, yangi tajribalarni o‘zlashtirishi va buning natijasida dunyoqarashi hamda faoliyatida sifat o‘zgarishlari yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi. Shunday ekan, milliy o‘zlikni anglashni ham tayyor bilimlar majmui sifatida emas, balki shaxsning o‘z tajribasi va ijtimoiy-madaniy muhit bilan o‘zaro munosabati davomida shakllanib boradigan dinamik jarayon sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning maqsadi, obyekti va predmeti. Tadqiqotning asosiy maqsadi transformatsiya yondashuvi asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirishning pedagogik asoslarini aniqlash, mazmuni va mexanizmlarini takomillashtirish hamda uning samaradorligini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni asoslashdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayoni belgilandi. Tadqiqot predmeti esa transformatsiya yondashuvi asosida milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirishning mazmuni, metodlari, shakllari, pedagogik vositalari, shart-sharoitlari hamda baholash mezonlarini qamrab oladi.

Belgilangan maqsadga muvofiq, avvalo transformatsiya yondashuvi va milliy o‘zlikni anglash tushunchalarining mazmun-mohiyatini aniqlashtirish, ularning o‘zaro aloqadorligini nazariy jihatdan asoslash, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirishning mavjud pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish hamda mazkur jarayonning mazmuni, metodlari va pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish vazifalari belgilandi. Shuningdek, milliy o‘zlikni anglashning rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari va indikatorlarini belgilash, taklif etilayotgan yondashuvning samaradorligini tajriba-sinov asosida tekshirish hamda oliy ta'lim amaliyoti uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish ham tadqiqot vazifalari tarkibiga kiritildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, aksiologik, faoliyatga yo‘naltirilgan, refleksiv va transformatsion yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi tashkil etadi. Tizimli yondashuv milliy o‘zlikni anglashni alohida sifat emas, balki bir-biri bilan uzviy bog‘langan bilim, qadriyat, munosabat, refleksiya va faoliyat komponentlaridan tarkib topgan yaxlit hodisa sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv talabaning individual tajribasi, ehtiyojlari, qiziqishlari va shaxsiy qarashlarini hisobga olishni nazarda tutsa, kompetensiyaviy yondashuv milliy o‘zlikni anglashni amaliy faoliyat, kasbiy mas'uliyat va ijtimoiy faollik bilan bog‘lash imkonini beradi.

Aksiologik yondashuv milliy va umuminsoniy qadriyatlarning shaxs hayotidagi o‘rnini aniqlashga xizmat qiladi. Refleksiv yondashuv esa talabaning o‘z qarashlari, tajribasi, qadriyatlari va kasbiy pozitsiyasini mustaqil tahlil qilishi hamda zarur hollarda qayta baholashiga imkon yaratadi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv milliy o‘zlikni anglashning real pedagogik va ijtimoiy faoliyatda namoyon bo‘lishini nazarda tutadi. Ushbu yondashuvlar transformatsiya yondashuvi bilan uyg‘unlashtirilganda, talabaning mavjud qarashlarini tanqidiy ko‘rib chiqishi, yangi bilim va tajribalarni o‘zlashtirishi hamda milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini shaxsiy e'tiqod darajasida qayta shakllantirishi uchun pedagogik imkoniyat yaratiladi.

Tadqiqotda nazariy va empirik metodlardan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish va modellashtirish nazariy metodlar sifatida qo‘llanildi. Empirik bosqichda pedagogik kuzatish, suhbat, anketa, intervyu, ekspert baholash, o‘z-o‘zini baholash, refleksiv topshiriqlar, portfolio tahlili va pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanish ko‘zda tutildi. Olingan natijalarni qiyosiy tahlil qilishda miqdoriy ko‘rsatkichlardan, zarur hollarda esa matematik-statistik qayta ishlash usullaridan foydalanildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Transformatsiya yondashuvining nazariy asoslari Jack Mezirowning transformativ ta'lim konsepsiyasi bilan bevosita bog'liq. Olim ta'lim jarayonida shaxsning mavjud qarashlari va ma'no sxemalarini tanqidiy refleksiya orqali qayta ko'rib chiqishi natijasida yangi dunyoqarash shakllanishini asoslagan. Uning qarashlarida shaxsiy tajribani qayta talqin qilish, tanqidiy fikrlash, muloqot va refleksiya transformatsiyaning muhim omillari sifatida namoyon bo'ladi [8].

Patricia Cranton ushbu g'oyalarni ta'lim amaliyoti bilan bog'lab, transformativ ta'limda o'qituvchi va ta'lim oluvchining refleksiv faoliyati, mustaqil fikrlashi hamda kasbiy identikligiga e'tibor qaratadi [9]. Bu qarashlar bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kasbiy bilimlar bilan bir qatorda, ularning pedagogik pozitsiyasi va qadriyatlar tizimini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Knud Illerisning tadqiqotlarida esa shaxsning bilim, hissiy tajriba va ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda rivojlanishi, identiklikning dinamik xususiyati va ta'lim jarayonidagi transformatsion o'zgarishlar tahlil qilingan [10]. Ushbu qarashlar milliy o'zlikni anglashni ham shaxsning ijtimoiy-madaniy tajribasi bilan bog'liq holda rivojlanadigan dinamik jarayon sifatida o'rganish imkonini beradi.

Benedict Andersonning milliy identiklik haqidagi qarashlari ham tadqiqot uchun muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Uning konsepsiyasida milliy hamjamiyat umumiy tarixiy xotira, til, madaniyat va ijtimoiy tasavvurlar bilan bog'liq holda shakllanadi. Shu ma'noda milliy o'zlikni anglash shaxsning o'zini muayyan tarixiy va madaniy makon bilan bog'liq holda idrok etishi, uning qadriyatlarini anglash va mazkur qadriyatlarga nisbatan shaxsiy munosabat shakllantirishi bilan tavsiflanadi.

Mahalliy tadqiqotlarda esa milliy tarbiya, ma'naviy-axloqiy kamolot, shaxs rivoji, pedagogik kompetensiya va bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash masalalari keng yoritilgan. Q. Hoshimov, R. Mavlonova, B. Xodjayev, N. Egamberdiyeva, M. Ochilov, O. Musurmonova va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, milliy tarbiya hamda pedagogik kompetentlikning mazmuni va shakllanish shartlari tadqiq etilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda transformativ ta'lim, refleksiya, identiklik va shaxsning ichki o'zgarishlari masalalari yetarlicha keng o'rganilgan bo'lsa, mahalliy tadqiqotlarda milliy tarbiya, ma'naviy qadriyatlar va pedagogik kadrlar tayyorlash muammolariga ustuvor ahamiyat berilgan. Biroq ushbu ikki yo'nalishni, ya'ni transformatsion ta'lim imkoniyatlari bilan milliy o'zlikni anglash jarayonini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash kontekstida yagona pedagogik tizim sifatida birlashtirish masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, mazkur jarayonning pedagogik mexanizmlari, rivojlanish mezonlari va amaliy metodik ta'minotini ishlab chiqish ilmiy jihatdan dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotning asosiy mazmuni. Tadqiqotda milliy o‘zlikni anglash bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining shaxsiy va kasbiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida qaraladi. Uning mazmuni milliy tarix va madaniyatga oid bilimlarni egallash bilangina cheklanmaydi. Mazkur jarayonda shaxsning milliy qadriyatlarga munosabati, tarixiy-madaniy merosga daxldorlik hissi, o‘zining milliy va kasbiy identikligini anglash, tanqidiy fikrlash, refleksiya hamda milliy qadriyatlarni pedagogik faoliyatda namoyon eta olish qobiliyati ham muhim o‘rin tutadi.

Shu asosda milliy o‘zlikni anglashning kognitiv, aksiologik, emotsional-motivatsion, refleksiv va faoliyatga doir jihatlari o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinadi. Kognitiv jihat milliy tarix, til, madaniyat va qadriyatlar haqidagi bilimlarni; aksiologik jihat mazkur qadriyatlarga ongli munosabatni; emotsional-motivatsion jihat milliy-madaniy merosga daxldorlik va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini; refleksiv jihat shaxsning o‘z qarashlari va tajribasini tahlil qilish qobiliyatini; faoliyatga doir jihat esa milliy qadriyatlarni amaliy pedagogik faoliyatda namoyon eta olishni ifodalaydi.

Transformatsiya jarayoni ushbu komponentlarning oddiy yig‘indisi emas, balki ularning o‘zaro ta’siri natijasida shaxsning qarashlari va pedagogik pozitsiyasida sifat o‘zgarishlari yuzaga kelishini nazarda tutadi. Bunda talabaning avvalgi tasavvurlari aniqlanadi, muammoli vaziyatlar orqali ular qayta ko‘rib chiqiladi, yangi bilim va tajribalar bilan boyitiladi hamda refleksiya orqali shaxsiy xulosalarga aylantiriladi. Natijada milliy qadriyatlarga munosabat tashqi talab darajasidan ichki e’tiqod va amaliy pedagogik pozitsiya darajasiga ko‘tariladi.

Mazkur jarayonda suhbat, munozara, muammoli vaziyatlar tahlili, pedagogik keyslar, loyiha ishlari, tarixiy-madaniy obyektlarga oid tadqiqot topshiriqlari, portfolio, refleksiv kundaliklar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish samarali natija berishi mumkin. Muhimi, qo‘llaniladigan metodlar talabani tayyor xulosani qabul qilishga emas, balki mustaqil fikrlash, taqqoslash, dalillash, o‘z pozitsiyasini asoslash va o‘z faoliyatini baholashga yo‘naltirishi lozim.

Ilmiy yangilik va amaliy natijalar. Tadqiqotning ilmiy yangiligi transformatsiya yondashuvining imkoniyatlarini milliy o‘zlikni anglash jarayoni bilan bog‘lash, ushbu jarayonning pedagogik mazmuni va tarkibiy komponentlarini aniqlash, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining milliy o‘zligini anglashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik model va metodik ta’minotni ishlab chiqish bilan belgilanadi. Shuningdek, milliy o‘zlikni anglashning rivojlanganlik darajasini baholashda bilim, qadriyat, munosabat, refleksiya va faoliyatning o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan mezonlardan foydalanish taklif etiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga transformativ ta’lim elementlarini joriy etish, maxsus mashg‘ulotlar va refleksiv topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, milliy-madaniy mazmundagi pedagogik vaziyatlardan foydalanish hamda talabalarning individual rivojlanishini kuzatib borishga imkon beruvchi portfolio texnologiyasidan foydalanish bilan belgilanadi. Mazkur

materiallardan pedagogika fanlarini o‘qitishda, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda va talabalar mustaqil ta’limini yo‘lga qo‘yishda foydalanish mumkin.

Xulosa va tavsiyalar. Olib borilgan nazariy tahlil transformatsiya yondashuvi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish uchun yetarli metodologik imkoniyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Uning asosiy afzalligi shundaki, ta’lim jarayonida talabaning faqat bilim darajasiga emas, balki uning mavjud qarashlari, qadriyatlari, shaxsiy tajribasi va kasbiy pozitsiyasiga ham ta’sir ko‘rsatish imkoniyati yuzaga keladi. Bunday jarayonda milliy qadriyatlar tashqi talab yoki nazariy ma’lumot sifatida emas, balki shaxs tomonidan anglangan va shaxsiy hayotiy pozitsiyaga aylangan qadriyat sifatida o‘zlashtiriladi.

Shu bilan birga, milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash muhimdir. Milliy o‘zlikni anglash boshqa madaniyatlarni inkor etish yoki ularga qarama-qarshi qo‘yish emas, balki o‘zining tarixiy-madaniy ildizlarini anglagan holda turli madaniyat va qarashlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni ham nazarda tutadi. Shu jihatdan transformatsiya yondashuvi bo‘lajak pedagoglarda milliy identiklik bilan bir qatorda, ochiq fikrlilik, madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy mas’uliyatni ham rivojlantirish imkonini beradi.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida transformativ ta’lim elementlarini fanlararo integratsiya asosida qo‘llash, talabalarning shaxsiy tajribasi va hayotiy qarashlarini ta’lim mazmuni bilan bog‘lash, refleksiv topshiriqlar va muammoli vaziyatlardan muntazam foydalanish maqsadga muvofiq. Shuningdek, milliy o‘zlikni anglashning rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun uning bilim, qadriyat, motivatsiya, refleksiya va faoliyat bilan bog‘liq jihatlarini hisobga oladigan diagnostik mezonlarni takomillashtirish zarur.

Kelgusida mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarda transformatsiya yondashuvining raqamli ta’lim, media savodxonlik, sun’iy intellekt vositalari va uzluksiz kasbiy rivojlanish bilan bog‘liq imkoniyatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda raqamli vositalardan foydalanishning o‘zi emas, balki ularning bo‘lajak pedagogning mustaqil fikrlashi, refleksiyasi, milliy-madaniy mazmunni anglash va pedagogik faoliyatga tatbiq etish qobiliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishi asosiy tadqiqot yo‘nalishi sifatida qaralishi lozim.

Umuman, transformatsiya yondashuvi asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish ta’lim, tarbiya va shaxsiy rivojlanish jarayonlarini bir butun holda tashkil etish imkonini beradi. Mazkur yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik jarayon kelajakdagi o‘qituvchining nafaqat kasbiy kompetentligini, balki uning ma’naviy qiyofasi, fuqarolik mas’uliyati, milliy qadriyatlarga ongli munosabati va jamiyatdagi pedagogik vazifalarini chuqur anglashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1–2-jildlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
4. Davletshin M.G. Psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi.
5. Mavlonova R., Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Xalilova N.I., Amirova O.Q. Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022. – 456 b.
7. G‘oziyev E.G‘. *Psixologiya*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – 352 b.
8. Jack Mezirow Uning Understanding and Promoting Transformative Learning 2006.-115
9. Patricia Cranton Uning Transformative Dimensions of Adult Learning (1991) hamda Transformative Learning: Theory to Practice (1997)
10. Knud Illeris tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Uning Transformative Learning and Identity (2014)
11. SHAXSDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI A To‘raboyev - MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI JURNALI, 2025 Related articles All 2 versions.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694